

02-11/26
19.03.2025



**Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “O‘zgarish” ko‘chasi,
18-manzilda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari yig‘ilish
BAYONNOMASI № 4**

2025-yil 6-mart

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: T.Kuziev – Ilmiy-ekspert kengashi raisi;

Qatnashdilar: Ilmiy-ekspert kengashi a‘zolari: F.Usmonov,
X.Sultonov, Sh.Pidaev, B.Raxmanov, M.Saidov,
hamda M.Mumin-Axunova

Qatnashmaganlar: I.Yusupov va A.Kuranov

Mas’ul kotib: X.Haydarov.

KUN TARTIBI:

1. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, “Bobur” ko‘chasi, 45-manzilda joylashgan “To‘qimachilik kombinati madaniyat saroyi binosi”ning muhofaza hududida xorijiy davlatlarning urf-odatları, milliy hamda madaniy an‘analarini aks ettiradigan pavilyonlar qurish bo‘yicha loyihasi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 21.02.2025-yil 01-02/221-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

2. Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “Alisher Navoiy” ko‘chasi, 15-manzildagi Alisher Navoiy san‘at saroyi binosi hamda “Shodlik mehmonxonasi” muhofaza hududida ko‘p qavatli (o‘n qavat) noturar joy binosini qurish loyihasi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 19.02.2025-yil № 01-02/201 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

3. Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, “Mustaqillik shoh” ko‘chasi, 1-manzildagi “Ilgarigi yozuvchilar uyushmasi binosi” madaniy meros obyektiining fasad qismini restavratsiya va ta‘mirlash-tiklash hamda ichki qismlarini ofisga moslashtirish ishlari bo‘yicha loyiha.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 24.02.2025-yil № 01-02/230 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

4. Toshkent shahar, Yunusobod tumani, “Astronomiya” ko‘chasi, 33-manzilda joylashgan “Toshkent Observatoriya binosi hamda bog‘i” hududida “OXYGEN PARK” nomli jamoat bog‘ini barpo etish hamda binolarda ta‘mirlash-tiklash ishlari loyihasi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 26.02.2025-yil № 01-02/237 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

5. Farg‘ona viloyati, Marg‘ilon shahar, “Tinchlik” ko‘chasi, 278A-manzilda joylashgan “Safed to‘da masjidi” madaniy meros obyektida qo‘shimcha restavratsiya va ta‘mirlash ishlari loyihasi.

Asos: Farg‘ona viloyati madaniy meros boshqarmasining 03.03.2025-yil № 01-10/89 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

6. Toshkent shahar, Olmazor tumanida joylashgan “Hazrati Imom” hududini obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish shuningdek, “Tillashayx masjidi” hududidagi tahoratxonalarni va shiypon inshootini demontaj qilish ishlari loyihasi.

Asos: Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 4.03.2025-yil № 01-02/298 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

7. Samarqand shahrida joylashgan “Imom Moturidiy majmuasi”ni atrofini kengaytirish va obodonlashtirish maqsadida yodgorlik atrofidagi **217 ta** jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan turarjoy binolarini buzish bo‘yicha taklif.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.02.2021-yildagi PF-6165-sonli Farmoyishi, Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasining 04.03.2025-yil 01-03/472 xat hamda boshqarma tomonidan o‘tkazilgan tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi.

**Kun tartibidagi masalalarni atroflicha o‘rganib,
muhokama qilib, Ilmiy-ekspert kengashi**

QAROR QILADI:

1. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, “Bobur” ko‘chasi, 45-manzilda joylashgan “To‘qimachilik kombinati madaniyat saroyi binosi”ning muhofaza hududida xorijiy davlatlarning urf-odatlari, milliy hamda madaniy an‘analarini aks ettiradigan pavilyonlar qurish bo‘yicha loyihasi;

-loyihalashtirilgan binolar joylashtirish rejalashtirilgan hududdagi madaniy meros obyektining me‘moriy ko‘rinishiga mos emasligi sababli loyiha rad etilsin.

2. Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “Alisher Navoiy” ko‘chasi, 15-manzildagi Alisher Navoiy san‘at saroyi binosi hamda “Shodlik mehmonxonasi” muhofaza hududida (10 qavatli) noturar joy binosini qurish ishlari boshlab yuborilganligi ma‘lum bo‘lganligi tufayli obyekt YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi dastlabki ro‘yxatiga “Toshkent modernistik arxitekturasini. Markaziy Osiyoda zamonaviylik va an‘analar” milliy nomzodnomasi tarkibida kiritilgan Alisher Navoiy san‘at saroyi binosining muhofaza hududida joylashganligi sababli loyiha muallifi loyiha taklifi bo‘yicha “Merosga bo‘lgan ta‘sirni baholash hisoboti”ni tayyorlab, YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasiga kiritishi belgilab qo‘yilsin.

Mazkur ko‘rsatmalar nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yil, 649-qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

3. Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, “Mustaqillik shoh” ko‘chasi, 1-manzildagi “Ilgarigi yozuvchilar uyushmasi binosi” madaniy meros obyektining fasad qismini restavratsiya va ta‘mirlash-tiklash hamda ichki qismlarini ofisga moslashtirish ishlari bo‘yicha loyiha.

-loyihalashtirilgan madaniy meros obyektining ichki qismi ta‘mir talab ekanligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

-loyihalashtirilgan binoni asosiy konstruktiv qismlariga ziyon yetkazmaslik, o'zgartirmaslik shuningdek, rekonstruksiya qilish ishlari madaniy meros obyektning me'moriy ko'rinishiga uyg'unlashtirilganligini inobatga olib olib, loyiha ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yil, 649-qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

4. Toshkent shahar, Yunusobod tumani, "Astronomiya" ko'chasi, 33-manzilda joylashgan "Toshkent Observatoriya binosi hamda bog'i" hududida "OXYGEN PARK" nomli jamoat bog'ini barpo etish loyihasi ma'qullansin.

Ushbu xulosa, loyihada ko'rsatib o'tilgan madaniy meros obyektlarini ta'mirlash ishlarini boshlashga asos hisoblanmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur bog' hududidagi madaniy meros obyektlarini asl ko'rinishini saqlab qolish bo'yicha restavratsiya qilish loyihasi ishlab chiqib Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga qayta kiritish belgilab qo'yilsin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yil, 649-qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

5. Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahar, "Tinchlik" ko'chasi, 278A-manzilda joylashgan "Safed to'da masjidi" madaniy meros obyektida qo'shimcha tom qismidagi oraliq yopma vassalari (balor vassali yopma) va ichi qismidagi devorga ishlanadigan pannolar loyihasi ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yil, 649-qaroriga asosan) Farg'ona viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

6. Toshkent shahar, Olmazor tumanida joylashgan "Hazrati Imom" majmuasining "Tillashayx masjidi" hududidagi tahoratxonalarni qayta qurish loyihasi madaniy meros obyektiga ziyon yetkazmaslik sharti bilan ma'qullansin.

Belgilab qo'yilsinki, keyingi o'rinlarda ushbu hududda joylashgan madaniy meros obyektlari va ularning muhofaza hududida olib boriladigan restavratsiya va obodonlashtirish ishlari Madaniy meros agentligi bilan o'rnatilgan tartibda kelishsin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yil, 649-qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.02.2021-yildagi PF-6165-sonli Farmoyishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Samarqand shahrida joylashgan "Imom Moturidiy majmuasi"ning atrofini kengaytirish va obodonlashtirish ishlari taklifi ma'qullansin.

Madaniy meros agentligi "Imom Moturidiy majmuasi"ning atrofini kengaytirish va obodonlashtirish ishlari bo'yicha, o'rnatilgan tartibda Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyasi talablariga muvofiq YUNESKOning Umumjahon merosi markazini xabardor qilish choralarini ko'rishi tavsiya etilsin.

Keyingi o'rinlarda ushbu hududlarda olib boriladigan har qanday qurilish obodonlashtirish ishlari loyihalari o'rnatilgan tartibda Madaniy meros agentligi bilan kelishilishi qat'iyon belgilab qo'yilsin.

Ushbu hududda amalga oshiriladigan kengaytirish va obodonlashtirish ishlari nazorati Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasiga yuklatilsin.

Kengash mas'ul kotibi

 X. Haydarov

  